

## MITANNI DAVLATI TARIXI

### Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [Saidakbar01@mail.ru](mailto:Saidakbar01@mail.ru)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1703-7735>

Tel: +998930574320

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20961202>

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Qadimgi Sharq tarixida muhim o‘rin tutgan Mitanni davlatining vujudga kelishi, siyosiy taraqqiyoti, hududiy kengayishi, davlat boshqaruvi, Misr va Xett podshohlari bilan olib borgan diplomatik hamda harbiy munosabatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Mitanni hukmdorlari faoliyati, davlatning tanazzulga yuz tutish sabablari hamda hurriylar madaniyati va hind-oriy unsurlarining Mitanni sivilizatsiyasidagi o‘rni tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: Mitanni davlati, hurriylar, Vashshukanni, Kirta, Shuttarna, Shaushtatar, Tushratta, Xett podsholigi, Misr, Ossuriya, diplomatik munosabatlar, Qadimgi Sharq, hurriy madaniyati*

## ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА МИТАННИ

### Акбаров Рахматилло Муртазали угли

старший преподаватель кафедры философских и исторических наук Наманганского государственного педагогического института, доктор философии (PhD) по историческим наукам

E-mail: [Saidakbar01@mail.ru](mailto:Saidakbar01@mail.ru)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1703-7735>

Тел.: +998 93 057 43 20

***Аннотация:** В статье рассматриваются возникновение, политическое развитие и территориальное расширение государства Митанни, занимавшего важное место в истории Древнего Востока. Особое внимание уделено системе государственного управления, дипломатическим и военным отношениям Митанни с Египтом и Хеттским царством, деятельности правителей государства, причинам его упадка, а также особенностям хурритской культуры и влиянию индоарийских элементов. Исследование основано на анализе исторических источников и современных научных публикаций.*

***Ключевые слова:** государство Митанни, хурриты, Вашишуканни, Кирта, Шуттарна, Саушатар, Тушратта, Хеттское царство, Египет, Ассирия, дипломатические отношения, Древний Восток, хурритская культура*

## **HISTORY OF THE MITANNI KINGDOM**

**Raxmatillo Murtozali o‘g‘li Akbarov**

Senior Lecturer, Department of Philosophy and History, Namangan State

Pedagogical Institute

Doctor of Philosophy (PhD) in History

E-mail: Saidakbar01@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-1703-7735>

Tel.: +998 93 057 43 20

***Abstract:** This article examines the emergence, political development, and territorial expansion of the Kingdom of Mitanni, one of the significant states of the Ancient Near East. It analyzes the state's administrative system, its diplomatic and military relations with Egypt and the Hittite Kingdom, the activities of Mitanni rulers, and the factors that led to its decline. The study also explores Hurrian culture and the role of Indo-Aryan elements in the civilization of Mitanni. The research is based on historical sources and contemporary scholarly studies.*

**Keywords:** *Mitanni Kingdom, Hurrians, Washukanni, Kirta, Shuttarna, Shaushtatar, Tushratta, Hittite Kingdom, Egypt, Assyria, diplomatic relations, Ancient Near East, Hurrian culture*

Mitanni – Shimoliy Mesopotamiya va unga tutash hududlarda tashkil topgan qadimiy hurriylar davlati hisoblanib, mazkur davlat miloddan avvalgi XVII-XIII asrlar davomida mavjud bo‘lgan. Ossuriya matnlarida Hanigalbat, misr va semit tillarida Naharin nomlari bilan yuritilgan. Mitanni nomi asoschi hisoblangan maytaniy sulolasi nomi bilan bog‘liq. Mitanni poytaxti Vashshukanni (ba’zi manbalarda Xoshkani) Xabur daryosining yuqori oqimida joylashgan edi. Taxminlarga ko‘ra, bu shahar Suriyaning hozirgi Serekani shahri o‘rnida joylashgan.

Qadimgi Sharq tarixi mutaxassisi Igor Mixaylovich Dyakonovning fikricha, hurriylar arman xalqining asosiy tarkibiy qismiga aylanib, boshqa qarindosh xalqlar bilan butunlay aralashib ketgan. Mitanni aholisi hurriy va semitlardan iborat bo‘lib, rasmiy tillar hurriy va akkad tillari edi.

Mitaniyaliklar hurriy tilida so‘zlashishgan. Bunga dalil esa, ularning Xetlar bilan tuzgan shartnomalari matnlaridan ham, Misr fir‘avnlari yo‘llagan maktublaridan ham yaqqol ko‘rinadi.

Mitanniliklar armiyasi otchilik va aravalarda jang qilishda yuqori texnologiyaga ega edi, bu Mesopotamiyaning kichik hurri qabila guruhlarini birlashtirishga va Zagros va Amanos tog‘lari oralig‘idagi amoriy-akkad shahar-davlatlarini bo‘ysundirishga imkon berdi.

Xetlarning Kichik Osiyoning g‘arbini ekspansiya qilish bilan ovvora bo‘lib qolganligi Mitanni davlatining Yuqori Mesopotamiyada siyosiy hukmronlik o‘rnatishiga imkon tug‘dirgan. Xett podshosi Xattusili I (mil. avv. 1650 – 1620) davrida mitanniliklar Kichik Osiyo hududiga harbiy yurishlar uyushtirgan. Bu yurishlarni xetlar qiyinchilik bilan qaytargan. Xattusili I ning nabirasi va vorisi Mursiliy I mil. avv. 1595-yilda Bobilga qarshi yurish uyushtirib, amoriylar sulolasiga barham berdi. Xetlar bosqinidan keyin Bobil kassitlar tomonidan bosib

olingan. Mursilidan keyin Xett podsholigida uzoq muddatli ichki nizolar boshlandi, bu Mitannining yuksalishi va kuchayishida katta omil bo‘ldi.

Rivoyatlarga qaraganda, Mittanni podsholigining birinchi afsonaviy asoschisi **Kirta** ismli hukmdor bo‘lgan. Mil. avv. XVI asr oxiriga mansub Alalax (shimoliy Suriya)dan “Maytaniy” - Shuttarna I, Kirtaning o‘g‘li” deya qayd etilgan podsho muhrining topilganligi shunday hisoblashimizga asos bo‘ladi. Kirtadan so‘ng uning o‘g‘li **Shuttarna I** tahminan XVI asr oxirlarida hukmronlik qilgan. Undan so‘ng tahtga kelgan **Parattarna I** davrida Suriya hududlari Mitanni davlatining ta’sir doirasiga kira borgan. Idrimiy ismli hukmdorning Alalah taxtiga Parattarna I ning yordami bilan chiqqanligi bunga sabab bo‘lgan. Idrimiy o‘z davlatini Mitanniga vassal sifatida boshqargan.

Mitannining eng qudratli shohi **Shaushtatar** (yoki Saussadadattar) bo‘lib, tahminan mil. avv. 1450-1410-yillarda hukmronlik qilgan. U “Hurri jangchilari podshohi Maytaniy” unvoniga ega edi. U Toros tog‘laridan janubda joylashgan Kizzuvadna shohi bilan ham shartnoma tuzgan. Muxtor Alalax va Arrafa unga bo‘ysungan. Shaushtatar bundan tashqari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmasa-da, Ashshur ustidan ham o‘z nazoratini o‘rnatishga muvaffaq bo‘lgan. Mitanni elchisi Ashur oqsoqollar kengashi ishida qatnashib, boshqalar qatori har yili limmu unvonini ham olgan. Kichik Osiyo yarim orolining sharqiy qismidagi ko‘plab shaharlar Mitanniga bo‘ysungan.

Yangi podsholik davrida Misrning 18-sulola fir‘avnlarning Old Osiyo hududlariga harbiy yurishlari minataqadagi Mitanni davlatining manfaatlari bilan to‘qnashgan. Misr fir‘avni Tutmos III ning Old Osiyoda Mitanni davlati bilan olib borgan urushlari haqida ma’lumot beruvchi fir‘avn kotibi Tanini tuzgan yilnomalarga ko‘ra, Tutmos III hukmronligining 33-yili va 35-yilida Mitanni davlatiga bostirib kirib, uning hukmdorini Furot daryosi orqali chekinishga majbur qilgan.[1]

Mitanni va Misr o‘rtasidagi urush Mitanni hukmdori **Artadama I** va fir‘avn Tutmos IV o‘rtasida tinchlik o‘rnatilgunga qadar davom etgan. O‘rtadagi tinchlik Artadama I o‘z qizini fir‘avnga turmushga berishi bilan mustahkamlangan. Mitanni

uchun Xett podsholigining kuchli tahdidi kuchaygan bir davrda Misr bilan tinchlik o‘rnatish nihoyatda zarur bo‘lgan. Xetlar hukmdori Xattusili III Suriyaga chuqur kirib borgan. Keyingi davr mobaynida xetlar va mitaniliklar o‘rtasida urushlar davom etdi va buning ustiga Mitannida bir qator sulolaviy nizolar boshlandi. Shunga qaramay, podsho **Tushratta** Misr bilan do‘stlikka tayanib, xetlarga qarshi muvaffaqiyatli kurasha oldi va uzoq vaqt davomida Yuqori Mesopotamiyada xavfsiz hukmronlik qildi. Tushratta qizi Tado-Xebani Misr fir‘avni Amenxotep III ga turmushga beradi. Misrda islohotchi Amenxotep IV (Exnaton)ning hokimiyatga kelishi va Misr o‘z ichki ishlari bilan ovvora bo‘lib qolganligi natijasida Misr-Mitanni munosabatlari uzilib qolgan.

Xett podshosi Suppilium I (mil. avv. 1380-1335) Mitanniga bostirib kiradi. Boshda Tushratti xetlarning hujumini qaytaradi, lekin hukmronligining so‘nggi yillarida xett podshosi Suppilium I qo‘shinlaridan yengilgan. Oqibatda Mitanning bir qismini xetlar zabt qiladilar, Tushratta qochishga majbur bo‘ladi va o‘ldiriladi. Yordamga chaqirilgan Ossuriya hukmdori Ashshurballit I mamlakatning sharqiy viloyatlarini anneksiya qiladi. Shu vaqtdan Mitanni Shimoliy Mesopotamiyadagi kichik bir davlatchaga aylanib qoladi. Uning ustidan nazorat qilish uchun ossur va xetlar o‘zaro kurash olib borganlar. **Shattuara II** davrida, aniqrog‘i mil. avv. 1260-yilda Mitanni davlati Ossuriya podshosi Salmanasar I tomonidan tugatilgan.

#### **Mitanni davlati hukmdorlari ro‘yxati:**

**Kirta** – ?

**Shuttarna I** – mil. avv. XVI asr oxiri

**Parrattarna I** – taxminan 1500 – 1485

**Parshatatar** – taxminan mil. avv. 1485 – 1465

**Saushtatar** – taxminan mil. avv. 1465 – 1435

**Shaytarna** – taxminan mil. avv. 1435 – 1410

**Artadama I** – taxminan 1410 – 1400-yy.

**Shuttarna II** – taxminan 1400 – 1375-yy.

**Artashshumara** – taxminan 1375 – 1370-yy.

**Tushratta** – taxminan 1370 – 1350-yy.

**Artadama II** – taxminan mil. avv. 1335 – 1330

**Shuttarna III** – mil. avv. 1330-yilda

**Shattivaza** (Mattivaza, Kurtivaza) – taxminan mil. avv. 1350 – 1320 yy.

**Shattuara I** – taxminan mil. avv. 1320 – 1300-yy.

**Vasashatta** – taxminan mil. avv. 1300 – 1280-yy.

**Shattuara II** – taxminan 1265 – 1260-yy.[2]

**Mitanni madaniyati.** Mitanni davlati aholisi hind-oriy tillariga oid hurriy lahjasida so‘zlashishgan. Qadimgi Hindistondagi sanskrit tilida yozilgan manbalardagi ko‘plab so‘z va iboralar hurriy tilida ham takrorlanadi.

Jumladan, Xett va Mitanni davlatlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda hurriy qabilalarining hudolari: Mitra, Varuna, Indra, Nasatya kabi hudolarning nomlari sanab o‘tiladi.[3]

Mitanni davlati, qisqa muddat tarix sahnasida turgan bo‘lishiga qaramay, qadimiy Old Osiyo tarixining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Uning siyosati, madaniyati va iqtisodi o‘z davrining murakkab va rivojlangan tizimlaridan biri bo‘lib, keyingi davrlar uchun katta ta’sir o‘tkazgan. Mitanni davlati haqida ko‘plab ma’lumotlar hali to‘liq o‘rganilmagan, ammo arxeologik izlanishlar va tarixiy hujjatlar uning o‘rni haqida yaxshiroq tushuncha berishda davom etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. История древнего Востока. Зарождение древнейших классовых обществ и первые очаги рабовладельческой цивилизации. Часть вторая. Передняя Азия. Египет. (Под редакцией Г. М. Бонгард-Левина). – М.: Главная редакция восточной литературы, 1988. – С. 434.

2. Mitanni // <https://en.wikipedia.org/wiki/Mitanni> [Murojaat qilingan sana: 03.06.2026]

3. Arnaud Fournet. About the Mitanni-Aryan Gods // The Journal of Indo-European Studies . – Volume 38, Number 1 & 2, Spring/Summer 2010. // [https://www.researchgate.net/publication/297938476\\_About\\_the\\_Mitanni-Aryan\\_gods](https://www.researchgate.net/publication/297938476_About_the_Mitanni-Aryan_gods) [Murojaat qilingan sana: 29.05.2026]

4. Akbarov Rahmatillo Murtozali O‘G‘Li, . (2023). COVERAGE OF THEATER ACTIVITIES IN UZBEK NATIONAL PRESS DURING WORLD

WAR II. International Journal Of History And Political Sciences, 3(06), 21–28.  
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue06-05>

5. Акбаров, Р. (2023). Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek milliy matbuotida sog‘liqni saqlash masalasi. История и культура центральной Азии, 1(1), 485–490. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/history-culture/article/view/17209>